



THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

MILLAT TARAQQIYOTIDA ADABIYOTNING O'RNI

Nazarova Dilnoza

O'z DJTU 2-bosqich talabasi

Tel: +998937588833

E-mail:

studentkajahontillari@gmail.com

umirzakovnadilnoza@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada adabiyotning millat taraqqiyotidagi o'rni, uning jamiyat rivojidadagi ahamiyati va nufuzi kabi tomonlari ochib beriladi. Adabiyot yashasa, millat yashaydi, adabiyot gullasa, millat rivojlanadi. Jamiyatning birdan bir asl ko'rinishi qay darajadiligini ochib bera oladigan yo'l bu- adabiyotning rivojlanish darajasidir. Ma'naviy olami boy, dunyoqarashi keng xalqni hech bir g'arazli niyat egalari zabt eta olmaydi.

Kalit so'zlar: til, o'zbek tili, adabiyot, millat, jamiyat, rivojlanish, taraqqiyot, ma'naviyat.

KIRISH

Insonning qalb xazinasini – so'z, bu xazinaning kaliti esa tildir. O'zbek tili shu qadar keng, ma'noga boy, sermazmun va beqiyos tilki, uning ta'rifini, ifodasini anglay bilish uchun anchayin sa'y-harakat kerak bo'ladi. Muhtaram ajdod ustozimiz, o'zbek tilining, adabiyotining asoschisi va rivojlanish bosqichining eng yuqori nuqtasida ijod qilgan arbob Alisher Navoiy ta'kidlaganidek: "Ko'ngil qulfi mahzanin qulfi til va ul qulfin kalitin so'z bil".

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Adabiyot- millat tayanchi, jamiyat ko'zgusi, rivojlanish nuqtasi, ma'naviyat bo'g'ini. Adabiyot dunyoni anglash vositasi, u orqali biz nima yaxshi-yu nima yomonligini anglaymiz, dunyoviy bilimga ega bo'lib qolmasdan, balki diniy ta'lim haqida ham ko'nikma berib o'tadi. Biz adabiyot bilan insoniyat o'rtasidagi mojarolar va kelishmovchiliklarga barham berolamiz.

Adabiyot orqali biz insonning ichki olamini, o'zgacha dunyosini, ichki borlig'ini korishni o'rganamiz. Adabiyot – ruh va shaxs tushunchasining kuchli manbai. U orqali biz ruhimizni chulg'agan hissiyotlardan xalos bo'lamiz, ularni his eta olamiz, shaxsimizni ruhimizga mos ravishda tarbiyalay olamiz. Adabiyot o'zidagi badiiy



THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

obrazlarni ochib berish orqali bizga hayotdan saboq berib ketaveradi. Bora- bora biz haqiqat va yolg'on, yaxshilik va yomonlik, yorug'lik va qabohat kabi tushunchalari bir-biridan ajrata boshlaymiz.

Adabiyot millat ko'zgusi ekanligi isbot talab qilmaydigan haqiqatdir. Adabiyot aql va hisni rivojlantiradi, uni bir-biridan farqlaydi. U bizning o'qituvchimiz, ustozimiz, yo'l boshchimiz. Haqiqiy va haqiqiy bo'lmagan dunyo uchun qo'llanma. Fikrlarni so'z bilan ifodalash qobiliyati - bu odamning o'ziga xos xususiyati. So'zlar - ma'naviy rivojlanish darajasini aniq aks ettiruvchi ko'zgu. Bizning ruhimizga tashqaridan kirgan hamma narsa bizning his -tuyg'ularimizda, fikrlarimizda va ularni ifoda etish uslubida akslantirilgan.

Dunyoda insonlar bir- birlariga o'xshamaganlaridek, adabiyot ham ichki takomiliga ko'ra boshqa ruhiy tarbiyachilardan farq qiladi. Har qanda investitsiya kiritilmasin, har qanday yutuqlarga erishilmasin, har qanda yuksalish bo'lmasin, agar u xalqning adabiyoti nimjon, badiiy tushunchasi nosog'lom, axloqiy- madaniy boyligi yetarlicha bo'lmasa, millat hech qacho rivojlanmaydi. Rivojlanish bosqichining peshqadamlarida adabiyot turadi. Millat taraqqiyotining negizi adabiyotga borib taqaladi. Qaysidir xalqning badiiy adabiyoti kuchli bo'lsa, u xalqning mustahkamligi barqaror.

Bizda olamga doston bo'lgan ne-ne ajdodlarimiz bor, ularning bizga qoldirgan badiiy adabiyotini ko'rib hayratda qolasan kishi. Ular o'zbek adabiyotining yorqin namunalari bo'lgan Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Yassaviy, Moturudiy, Ahmad al-Farg'oniy va boshqa mutafakkirlarimiz kabi bir qator ulamolardir. O'z vaqtida ular o'zbek adabiyotining yetuk nuqtasini ochib bera olishgan, uni olamga doston qilishgan, shu orqali bizni butun olam tanidi. Ko'rinib turganidek, milliy adabiyotimiz orqali bizda yuksalish bosqichi o'z-o'zidan oldinlab brogan. Millat gullab- yashnagan.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, adabiyot qaysi davrda bo'lishidan qat'iy nazar qadimgi davrda ham, Navoiy davrida ham, xonliklar davrida ham, hozirgi davrda ham, kelajakda ham ma'naviy kamolotning yuqori vositasi, inson qalbining tarjimoni, ta'lim va tarbiyaning asosi bo'lib qolaveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. –Toshkent: Ma'naviyat, 2008 -yil.
2. Boqijon To'xliyev. Adabiyot. –Toshkent: O'qituvchi, 2005-yil.

THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT



3. Z.M.Bobur. Boburnoma. –Toshkent: O‘qituvch, 2008-yil.
4. Tohir Malik. Alvido bolalik. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019- yil.
5. <https://tlaudit.ru/uz/stroke/yazyk-hudozhestvennoi-literatury-hudozhestvennaya-rech-i-ee/>
6. [Rasulova, A. M., & Xusanova, M. R. A. \(2022\). POETIK NUTQDA SINONIMLARDAN FOYDALANISH MAHORATI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2\(10-2\), 807-811.](#)
7. Sanober, S., Aldawsari, M., Karimovna, A. D., & Ofori, I. (2022). Blockchain Integrated with Principal Component Analysis: A Solution to Smart Security against Cyber-Attacks. Security and Communication Networks, 2022.

